

AHOLI DAROMADLARIGA INFLYATSIYANING TA`SIRI VA UNI KAMAYTIRISH YO`LLARI

Isayev Atabek Djurabayevich
*Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti o`qituvchisi, doktorant*

Iqtisodiyotda aholi muhim iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

Aholi — Yer yuzida yoki uning muayyan hududi, qit'a, mamlakat, tuman, shaharida istiqomat qiluvchi odam (inson)lar majmui.[1]

Iqtisodiyot nuqtai nazardan qaraganda aholi – bu:

- ish kuchi manbai;
- iste`molchilar armiyasi;
- tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchisidir.

Odamlar hayot kechirish uchun doimo kundalik ehtiyojlarini qondirishi lozim.

Bu esa ularni joriy iste`mol xarajatlarini amalga oshirishga majbur qiladi. Albatta xarajatlarni qilish uchun aholi qandaydir daromadga ega bo`lshe kerak.

Aholi daromadlari deyilganda, ularning ma'lum vaqt davomida (masalan, bir yilda) pul va natural shaklda olgan barcha daromadlari miqdori tushuniladi.[2]

Olingan daromadlar odamlarning turmush darajasiga o`z ta`sirini o`tkazadi. Lekin bu ko`rsatkich faqat olingan daromad miqdoriga emas, balki bozordagi narx-navoning o`zgarish darajasiga ham bog`liq. Bu esa aholi daromadlarini tahlil qilishda ularni nominal va real daromadlarga ajratadi.

Nominal daromadlar pul ko`rinishida aholi tomonidan qo`lga kiritgan daromadlar bo`lsa, real daromadlar esa narx darajasi o`zgarishi hisobiga nominal daromadga qancha tovar va xizmatlar xarid qilinganini ko`rsatadi. Bundan ko`rinib turibdiki real daromadlar narxga nisbatan teskari proportsionaldir, narx darajasi ko`tarilsa aholining real daromadlari pasayadi va aksincha narxlar darajasi pasaysa aholining real daromadi oshadi.

Iqtisodiyotda narxlarning muntazam o`sishi inflyatsiyani keltirib chiqaradi.

Inflyatsiya – bu pul massasining tovar aylanmasi ehtiyojlariga nisbatan ortib ketishi natijasida pul birligining qadrsizlanishi va shunga mos ravishda tovar narxlarining o`sishidir.[3]

Inflyatsiya nafaqat aholining tovarlarni xarid qilish miqdoriga, balki ularning jamg`armalariga ham salbiy ta`sirini o`tkazadi. Muomaladagi pullarning qarsizlanib borishi jamg`armalarning qadrsizlanishiga sabab bo`ladi.

Birinchi navbatda inflyatsiyadan aziyat chekadigan aholi qismi bu – qat`iy belgilangan daromad oluvchilardir. Bular kam ta`minlangan aholi, pensionerlar, nafaqaxo`rlar, stipendiya oluvchilar va boshqalar. Ularning daromadi qat`iy belgilanganligi sababli o`z daromadlarini inflyatsiya tufayli oshiraolmaydilar.

Davlat inflyatsiya bilan kurashishda uning oqibati bilan emas, balki uni keltirib chiqargan sabablari bilan kurashish kerak.

Inflyatsiyani keltirib chiqadigan sabablar - bu ichki va tashqi sabablardir.

Ichki sabablarga ishlab chiqarishning pasayishi (turg'unlik), mamlakat byudjeti taqchilligi, ishlab chiqarish xarajatlarining oshib borishi, davlatning haddan tashqari ijtimoiy xarajatlari, pul massasi va soliqlarning asossiz o'sishi kiradi.

Inflyatsiyaning tashqi sabablari-bu davlatning salbiy savdo va to'lov balansi, eksport yoki import uchun mo'ljallangan tovarlar va xizmatlar narxining oshishi, valyuta kursining o'zgarishi, inqirozlar.

Inflyatsiya darajasi asosan iste'mol tovarlar indeksi ko'rsatkichi orqali aniqlanadi.

Dunyo mamlakatlarining aksariyat qismi, jumladan, O'zbekistonda ham inflyatsiya darajasi "iste'mol savatchasi" deb nomlanadigan, o'rtacha odam yoki oila doimiy ravishda sotib oladigan mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar to'plamiga nisbatan aniqlanadi. U qimmatbaho tovarlar bilan emas, balki birlamchi kundalik mahsulotlar, masalan, turli xizmatlar, non, sabzavot, o'simlik yog'i, tuxum, go'sht, guruch kabi oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlar bilan o'lchanadi. Ushbu shartli savat narxi oyma-oy o'zgarib turadi. Bunday o'zgarish ko'rsatkichiga qarab inflyatsiyaning darajasi aniqlab boriladi.

Quyidagi jadvalda 2023 yanvar – avgust oylarida O'zbekiston Respublikasida inflyatsiya darajasining o'zgarishi keltirilgan (1-jadval).

1 - jadval

2023 yanvar – avgust oylarida O'zbekiston Respublikasida inflyatsiya darajasining o'zgarishi*

Oylar	Inflyatsiya indeksi, %	Inflyatsiya darajasi, %	O'zgarishi, %
Yanvar	100,8	0,8	0,8 ↑
Fevral	100,5	0,5	0,3 ↓
Mart	101,0	1,0	0,5 ↑
Aprel	100,8	0,8	0,2 ↓
May	100,5	0,5	0,3 ↓
Iyun [4]	99,7	- 0,3	0,8 ↓
Iyul [5]	99,5	- 0,5	0,2 ↓
Avgust [6]	100,2	0,2	0,5 ↑

Manba: https://bankchart.uz/uz/spravochniki/indikatory_rynka/inflation_index/2023

Jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratsak O'zbekistonda 2023 yil yanvar – avgust oylari davomida o'rtacha inflyatsiya o'zgaruvchan bo'lgan. Bu yerda keltirilgan ma'lumotlar oldingi oyga nisbatan ko'rsatilgan bo'lib, inflyatsiya darajasining o'sish sur'ati yanvar, mart va avgust oylariga to'g'ri kelmoqda. Qolgan oylarda esa mamlakatimizda inflyatsiya sur'atining pasayish tendentsiyasi kuzatilgan, hatto iyun va iyul oylari inflyatsiyaning o'rniqa deflyatsiya kuzatilgan. Bu holatni quyidagi sabablar bilan izohlashimiz mumkin:

- O'zbekiston monetar organlari tomonidan inflyatsiyaga qarshi bo'yicha olib borilgan choralarining natijasi;
- mahalliy bozorlarimizga yangi qishloq xo'jalik mahsulotlarining kirib kelishi va qisqa muddatga bozorning to'ynishi.

Narxlarning pasayishi albatta iste`molchilarini talabini rag`batlantiradi, lekin tangani ikkinchi tomonini ham esdan chiqarmasligimiz lozim. Deflyatsiya ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta`sir qiladi, bunda ishlab chiqaruvchilar narxlar pasaygan sharoitda ishlab chiqarish hajmini qisqartirishga harakat qilishadi. Bu milliy iqtisodiyotdagi o'sishni o'rniiga pasayishiga olib keladi, ya`ni retsessiyaga.

Mamlakatda monetar organlari meyoriy darajadagi inflyatsiyani ta`minlash maqsadga muvofiq. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko`rsatkich 2-3 % atrofida, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 5-6 % tashkil qiladi.

2021 yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki inflyatsiyani targetlash monetar rejimiga o'tgan. Bundan maqsad inflyatsiyani nazorat qilish asosida mamlakatimizda narxlar barqarorligini ta`minlash. Markaziy bank ma'lumotlariga ko`ra joriy yil yakunigacha inflyatsiya darajasi mamlakatimizda 8,5—9,5 foiz bo'lishi proqnoz qilinmoqda. Bu ko`rsatkich belgilangan meyyordan yuqoridir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank ma'lumotlariga ko`ra inflyatsiya darajasining 5 % ga erishish 2024 yil oxiriga proqnoz qilinmoqda

Oldin ta`kidlagandek yuqori inflyatsiya darajasi aholiga salbiy ta`sir qiladi.

Inflyatsiyaning aholiga ta`sirini kamaytirish uchun quyidagi choralar ko`rilishi lozim:

- Markaziy bank inflyastiyani kamaytirishda barcha monetar usul va vositalarini ishga tushirish;
- Aholi real daromadlari pasayishini oldini olishda ularning daromadlarini oshirib borish. Oxirgi marta O'zbekistonda nafaqa, pensiyalar va stipendiyalar 2023 yil 1 apreldan hamda ish haqi 1 maydan 1,07 marta oshirilgan.
- Daromadlarni bank depozitlarga joylashtirish, agar bank inflyatsiyadan yuqori foiz stavkani taklif qilsa;
- Aholi pul mablag`larini investitsiya qilish, agar investitsiya loyihalari investitsiyadan yuqori foiz daromad olishni tashkil qilishayotgan bo`lsa;
- Qimmatli qog`ozlar (aksiya, obligatsiya)ni sotib olish;
- Oltin quyma yoki boshqa qimmatbaho metallarni xarid qilish;
- Qo`chmas mulknii (uy-joy, tomorqa) sotib olish, lekin buni amalga oshirish uchun katta miqdorda pul talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan usullarning hech biri inflyatsiyadan to'liq himoya qilishni kafolatlamaydi, ammo bir nechta usullarning kombinatsiyasi salbiy oqibatlarni kamaytirishga va pulingizni saqlab qolishga yordam beradi.

Adabiyyotlar:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Aholi>
2. T.T.Jo`rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. O`quv qo'llanma. -T.: «Fan va texnologiya», 2017, 576 bet
3. Курс экономической теории. Учебное пособие под.ред. Чепурина М.Н., Киселёвой Е.А. – Киров, изд. «ACA», 1995. – 423-с
4. https://bankchart.uz/uz/spravochniki/indikatory_rynka/inflation_index/2023
5. <https://daryo.uz/2023/08/01/ozbekistonda-iyul-oyida-yillik-inflyatsiya-89-foizgacha-pasaydi>
6. <https://daryo.uz/demo/2023/09/04/ozbekistonda-avgust-oyida-inflyatsiya-05-foizni-tashkil-etdi>